Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine

J Chem Good Trad Med, Volume 4, Issue 1, 2025 Traditional Medicine

XALQ TABOBATIDA DORIVOR O'SIMLIKLARDAN YARALI KOLIT, ME'DA VA O'N IKKI BARMOQLI ICHAK YARA KASALLIKLARDA FOYDALANISH

Xabibullo No'manjon o'g'li Qodirov
Andijon davlat tibbiyot instituti Ichki kasalliklar propedevtika kafedrasi assistenti
https://orcid.org/0000-0001-6574-7576
E-mail: kodirovkhabibullo6@gmail.com

Ibrohimjon Rahmonovich Asqarov
Andijon davlat universiteti Kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan ixtirochi,O‘zbekiston “TABOBAT” Akademiyasi raisi
https://orcid.org/0000-0003-1625-0330

DOI: https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol4.iss1.2025.397

Kalit so'zlar:
yarali kolit, dalachoy, bo’ymadaron, zubturum, tirnoqgul, andiz, moychechak.

Annotatsiya
Ushbu maqola biologik faol qo'shimchalarning qanchalik xalq tabobatidagi muhim o’rni va biologik faol qo'shimchalarning yarali kolit davolashda qo’llaniladigan shifobaxsh o’simliklarning ya’ni, dalachoy, zubturum, tirnoqgul va andiz, kimyoviy tarkibi va vitaminlarning biologik ahamiyati, shuningdek, ushbu o’simliklar yo’g’on ichak devoriga ta’siri mexanizimi va ularning muhokamasi to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan.

Havola uchun
Qodirov, X. N. o’g’li, & Asqarov, I. R. XALQ TABOBATIDA DORIVOR O’SIMLIKLARDAN YARALI KOLIT, ME’DA VA O’N IKKI BARMOQLI ICHAK YARA KASALLIKLARDA FOYDALANISH. Tovarlar Kimyosi Va Xalq Tabobati Jurnali, 4(1). https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol4.iss1.2025.397

Kirish. Dunyoda yarali kolit kasalligining uchrash darajasi kun sayin ortib bormoqda, ayniqsa, iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlarda, xastalikning jadal o'sishi kuzatilmoqda. Yarali kolit yo'g'on ichakning surunkali yallig'lanishi bilan kechuvchi, ish qobiliyatini qisman, yoki to'liq yo'qotilishiga olib keluvchi, asosan 20-40 yoshdagi shaxslarda uchraydigan kasallikdir[12,7] .

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra yarali kolit asorati bo'lgan bemorlar yiliga 1,8 milliondan ortiq insonlar vafot etishi qayd qilinmoqda. Ma'lumki turli mamlakatlarda kasallikning tarqalishi o'rtacha har 100 000 kishiga 24,3 dan 214 ta holatgacha uchramoqda[4,6].

Bugungi kunda yarali kolit kechishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, davolash va profilaktik chora tadbirlarini ishlab chiqish soha xodimlari oldida hal qilinishi zarur bo'lgan dolzarb muammolardan biridir. Jahonda yarali kolit patogenezining immunologik va infeksion jihatlarini samaradorligini takomillashtirishga yo'naltirilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda[9].

Mamlakatimiz tibbiyot sohasini rivojlantirish tibbiyot tizimini jahon andozalari talablariga moslashtirish, turli somatik kasalliklarni tashxislash, oldini olish va davolashga qaratilgan qator vazifalar yuklatilgan. Mamlakatimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, kasalliklarni erta tashxislash va davolashning yuqori

texnologik usullarini joriy qilish orqali, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni oldini olish muhimdir.

Shu munosabat bilan, 2022-2026 yillarda mamlakat rivojlanishi strategiyasida "Aholi salomatligini muhofaza qilish, tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish va 2022-2026 yillarda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish dasturini tadbiq etishga qaratilgan chora-tadbirlarini amalga oshirish" kabi vazifalar belgilangan[11].

Yuqorida qayd etilgan vazifalar aholining turli qatlamlari orasida me'da yara kasalligidan nogironlik va o'lim ko'rsatkichlarini pasayishiga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun Biologik faol dori vositalarini yaratish va ulardan foydalanishni takomillashtirish orqali me'da shilliq qavati himoya to'sig'ining zaiflashuvidan kelib chiqadigan xastaliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Yengil va o'rta darajali yarali kolit faolligi bo'lgan bemorlarda birinchi darajali davo sifatida dorivor o'simliklar eng ko'p ishlatiladi – dalachoy , zubturum, bo'yimodaron, andiz, tirnoqgul va moychechak. Dorivor o'simliklarning ta'sir qilish mexanizmining muhim xususiyatlari uning siklooksigenaza va lipooksigenazani bloklaydi, bu esa yallig'lanishga qarshi prostoglandinlar va leykotrienlarni hosil bo'lishining pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, zubturum, bo'yimodaron, andiz, tirnoqgul antioksidant xususiyatlarga ega[8].

Yarali kolit kasalligida uchraydigan asosiy simptomlar: kekirish, bosh og'rigi, dispepsiya, terida toshmalar, rinit, qorin bo'shlig'ida og'riq, ich qotish kabi nojo'ya ta'sirlari dorivor o'simliklar qo'llanilinganda kuzatilmaydi. Dorivor o'simliklardan foydalanilganda yarali kolit steroidsiz remissiyaga erishish mumkin, asoratlarni yani peritonit, ichakdan qon ketishi, anemiya, strikturalar, chandiqlar paydo bo'lishi natijasida ichak tutilishini oldini olish mumkin. Dorivor o'simliklarni asosiy standart prepaparatlar bilan birga qo'llanilganda yarali kolit bo'lgan bemorlarni hayot sifati yaxshilanadi[10].

Dorivor o'simliklarni damlamasini ichish va klizma shakllarda qo'lash mumkin. Yarali kolitni yengil va o'rta og'ir darajalarini remissiyasiga erishilganda, bemorga kamida 2 yil davomida qo'llab-quvvatlovchi terapiya buyurilishi kerak, bu davrda dorivor o'simliklar yarali koliti bor bemorlarga buyuriladi. Shunday qilib, yengil va o'rta darajadagi yarali kolit bilan remissiyaga erishish uchun birinchi darajali terapevtik dorivor o'simliklarinning rektal shakllari foydalanishga tavsiya etiladi [7].

• Dalachoy , zubturum, bo'yimodaron, andiz, tirnoqgul va moychechaklarni xar biridan 2 qoshiqdan olib 1.5 litr qaynagan suvga damlanadi. Ikki soat turgandan so'ng suzib olib, 0.5 litr damlamani sutka davomida ichiladi. Qolgan 1.0 litr tayyorlab olingan damlamani tozalov klizmasidan so'ng klizma qilinadi. Ushbu dorivor o'simliklar yarali kolit terapiyasi, me'da va 12 barmoqlik ichak yara kasalligi bilan og'rigan bemorlarda samarali ekanligi isbotlangan yengil va o'rtacha faollik darajasidagi kolitni davolash bo'yicha tavsiyalarga kiritilgan [5].

1-jadval. Dorivor o'simliklarning makro va mikroelementlar

Makro va mikroelementlar nomi		**100 g yashil massadagi elementlarning tarkibiy miqdori (mg)**					
		Boyimodaron	**Dalachoy**	**Zubturum**	**Andiz**	**Tirnoqgul**	**Moychechak**
Rux	**Zn**	3,48	0.71	0.91	0.39	3.78	2.06
Selen	**Se**	80	5	4.5	364	420	5.48
Temir	**Fe**	8,20	0.11	6.07	0.4	8.1	3
Marganes	**Mn**	84.3	2.2	1.21	1.8	3.861	1.37
Mis	**Cu**	155,33	0.34	144	0.08	2.655	0.49
Kaliy	**K**	3070	168	552	2500	3780	187
Kalsiy	**Ca**	1090	7.3	186	100	900	28
Magniy	**Mg**	116	0.25	36	750	270	99
Natriy	**Na**	80,09	0.18	59	75.4	405	7

Sera	**S**	23.7	0.18	87	127	153	38
Fosfor	**P**	43	48	50	150	423	95

Yuqoridagi jadvalda ko’rib turubdiki ushbu o’simlik tarkibida miqdor jihatidan kalsiy, kaliy, magniy, fosfor, selen va mis nisbatan yuqori hisoblanadi, bu esa inson organizmiga kerakli bo’lgan elementlarni to’ldirib berishni ta’minlaydi. (ushbu jadval ma’lumoti rossiya federatsiya so’gliqni saqlash tomonidan Мой здоровый рацион jurnalidan olingan)[14]

1- rasm. Dalachoy , zubturum, bo’yimodaron, andiz, tirnoqgul va moychechaklardan ekstraktr olish uchun tayyorlanishi



Damlama qabul qilinganda dorivor o’simliklar ingichka ichakda ko'proq so'riladi va uning bir qismi buzilmagan holda yo'g'on ichakka kiradi, va davolash samaradorligini oshirish uchun dalachoy , zubturum, bo’yimodaron, andiz, tirnoqgul va moychechak damlamasini ichish va rektal shakllarining qabul qilish kerak. Dorivor o’simliklarnning rektal shakllari ham kolit uchun monoterapiya shaklida, ham yo'g'on ichakning umumiy va chap tomonlama shikastlanishi uchun kombinatsiyalangan xolatda qo’llaniladi[1].

Dorivor o’simliklar ichak shilliq qavatida lokal faollik bilan terapevtik ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun dorivor o’simliklarinning turli xil farmakologik shakllari me’da, ichak zararlangan qismlariga yetkazib berishni optimallashtirish, tizimli so'rilishini minimallashtirish, bu mumkin bo'lgan eng past dozada maksimal terapevtik samaradorlikga erishish uchun yordam beradi va shu bilan nojo’ya ta'sirlarini kamaytiradi.

Dorivor o'simliklar o'zining terapevtik ta'sirini bir necha mexanizmlar orqali amalga oshiradi:

1. Antibakterial faollik: Dorivor o'simliklar anaerob bakteriyalarga ta'sir qiladi va ularning o'sishini ingibitsiya qiladi. Ushbu bakteriyalar kolit va yallig'lanishli ichak kasalliklarida kuzatiladigan yalig'lanish va shikastlanishga yordam beradi.

2. Yallig'lanish reaktivligini kamaytirish: Dorivor o'simliklari sitokinlar va reaktiv kislorod turlari kabi yallig'lanishga qarshi moddalar ishlab chiqarishni kamaytirish orqali yallig'lanish reaktsiyasini modulyatsiya qilishga yordam beradi. Ushbu yallig'lanishga qarshi ta'siri kolit bilan bog'liq simptomlarni yengillashtirishga yordam beradi.

3. Immun tizimini tartibga solish: Dorivor o'simliklar yallig'lanish jarayonida ishtirok etadigan immunitet hujayralarining faoliyatini modulyatsiya qilish orqali immunitet tizimiga ham ta'sir qiladi. Ushbu tartibga solish immunitet muvozanatini tiklashga va yo'g'on ichakdagi yallig'lanishni kamaytirishga yordam beradi.

Dorivor o'simliklar kolit va yallig'lanishli ichak kasalliklarini davolashda hal qiluvchi ro’l o'ynaydi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, Dorivor o'simliklarining samaradorligi individual omillarga, shu jumladan kasallikning o'ziga xos holati va og'irligiga qarab farq qilishi mumkin [3].

Xulosa. Dorivor o'simliklar kolitni davolashda samarali ekanligini isbotladi. Ta'sir mexanizmi tufayli u yallig'lanishni tinchlantirishga va kasallikka chalingan odamlarda simptomlarni kamaytirishga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, dorivor o'simliklarni tibbiyot mutaxassislari rahbarligida qo'llash kerak. Ular tegishli dozani aniqlashi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlarni nazorat qilishlari mumkin.

Dorivor o'simliklar kolitni davolash uchun eng samarali xisoblanadi va kolitni davolashning yana boshqa jihatlarini ham hisobga olish kerak. Bunga sog'lom ovqatlanish, stressni kamaytirish va muntazam jismoniy mashqlar kabi turmush tarzini o'zgartirish kiradi..

Dorivor o'simliklar, kolitni davolashning asosiy terapiyasiga qo’shimcha tarzda birgalikda qo’llash hayot sifatini yaxshilaydi.

Adabiyotlar

1. Asqarov. I.R. "Tabobat qomusi".// T: Mumtoz so’z. Toshkent. 2019 y, B. 382.
2.Asqarov I.R."Sirli tabobat".// T: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. Toshkent. 2021y. B. 821.
3. Asqarov. I.R. "Dalillarga asoslangan xalq tabobati usullari". Toshkent-2023 y. 260-263 b.
4. O‘.Axmedov Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi // T: Shafoat Nur Fayz,Toshkent. 2020 y. B. 538.
5. Xojimatov O.K, Haydarov D.T, “O’zbekiston Dorivor O’simliklar Atlasi” o’quv qo’llanma Samarqand.2021 34-b
6. Yoziev.L.X, Arabova.N.Z Dorivor o‘simlik “Toshkent-2017” 402b
7. O‘.Ahmedov, A.Ergashev, ,A.Abzalov, M.Yulcheyeva, D.Mustafakulov Dorivor O‘simliklar Yetishtirish Texnologiyasi va Ekologiya “Toshkent-2020”167b.